

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARINI TUZISH VA SHARTNOMALARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR QO'LLANILISHINING AFZALLIKLARI

Yoqubova Zaxroxon Xaydarxo'ja qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Intellektual mulk va axborot texnologiyalari huquqi mutaxassisligi magistranti. +998977197423 E-mail: zsaydaliyeva1@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarining umumiy tavsifi, raqamli shartnomalarning afzalliklari va u bilan bog'liq muammo va kamchiliklarni oldini olish uchun eng dolzarb ilmiy yondashuvlar, qonunchilik normalarini tahlil etib raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari oid muammolarni bartaraf etish yuzasidan bir qator nazariy va amaliy takliflar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiya, sun'iy intellekt, haq evaziga xizmat ko'rsatish, shartnoma subyektlari, qonunchilik normalari.*

Abstract: *This article presents the essence and legal nature of contracts for the provision of paid services, a general description of contracts for the provision of paid services concluded using digital technologies, the advantages of digital contracts and the most relevant scientific approaches to preventing problems and shortcomings associated with them, and a number of theoretical and practical proposals for eliminating problems related to contracts for the provision of paid services concluded using digital technologies, analyzing legislative norms.*

Keywords: *digital technology, artificial intelligence, the provision of paid services, subjects, legislative norms.*

Kirish va dolzarblik.

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi - bu xizmat ko'rsatuvchi va mijoz (yoki iste'molchi) o'rtasida tuziladigan, xizmatni raqamli vositalar (masalan, internet, mobil ilova, platforma yoki sun'iy intellekt tizimi) orqali ko'rsatish hamda bu xizmat uchun to'lov undirishni nazarda tutuvchi fuqarolik-huquqiy shartnoma turi hisoblanadi. Ushbu turdagi shartnomalarning mazmuni quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

- Xizmat ko'rsatish subyekti;
- Buyurtmachi yoki foydalanuvchi;
- Xizmat turi;
- Raqamli shakldagi muloqot va amalga oshirish shakli;
- Haq evaziga.

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarida xizmat internet orqali ko'rsatiladi, buyurtma berish, qabul qilish, tasdiqlash, to'lov qilish - barchasi raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu turdagi shartnomalarga misol keltirib o'tadigan bo'lsak, YouTube Premium, Netflix, Coursera kabi platformalar orqali pullik kontentga obuna bo'lish, MyTaxi, Yandex Go yoki Express24 orqali xizmat buyurtma

qilish, Onlayn advokatlik, buxgalteriya yoki tarjima xizmatlari uchun to'lov evaziga masofaviy maslahat olish misol bo'la oladi. Eyana bir misol, elektron o'quv platformasi orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tuziladigan shartnomadir. Masalan, ushbu shartnomada o'quvchi buyurtmachi sifatida o'qituvchidan ma'lum muddat davomida o'qitishni so'raydi, o'qituvchi esa kelishilgan muddat ichida o'quvchini o'qitishni va ma'lum bir narx evaziga o'qitishni o'z zimmasiga oladi. Raqamli xizmat ko'rsatish shartnomasi ko'pincha elektron shaklda tuziladi. Bunda foydalanuvchi "qabul qilaman" tugmasini bosish orqali rozilik bildiradi. Bu - oferta (taklif) va aksept (qabul qilish) tamoyiliga asoslanadi. Odatda, foydalanuvchi shartnomasi, maxfiylik siyosati, va to'lov shartlari alohida hujjatlarda belgilanadi. Yurtimizda raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini qisman tartibga solishga qaratilgan qonun O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunidir. Ushbu qonunning 3-moddasiga ko'ra, raqamli mahsulotlar sanab o'tilgan. raqamli mahsulotlar - intellektual mulk obyektlarining elektron ko'chirma nusxalari (raqamli tovarlar), shuningdek elektron axborot muhitida moddiy natijaga ega bo'lmagan muayyan harakatlarni bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish, shu jumladan "bulutli texnologiyalar"ni (raqamli xizmatlarni) olishga hamda ularga obuna bo'lishga doir xizmatlar⁴⁴. Yuqoridagi qonunning 19-moddasida elektron shartnomalar tuzish tartibi belgilangan. Ushbu normani raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga tuziladigan xizmat ko'rsatish shartnomalariga ham qo'llashimiz mumkin deb hisoblaymiz. Bunda shartnoma akseptni amalga oshirish yo'li bilan quyidagicha tuzilishi mumkin:

- ✓ elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash nazarda tutiladigan elektron hujjat tarzida;
- ✓ elektron tijorat ishtirokchisining roziligi bildirilgan elektron xabar tarzida;
- ✓ ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarishga doir harakatlarni bajarish orqali tuzilishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalarini rasmiylashtirish

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga tuziladigan xizmat ko'rsatish shartnomalarni rasmiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, moddiy jismlarda tarqatiladigan raqamli mahsulotlarga doir shartnomalar boshqa tovarlarga oid shartnomalarga o'xshash tarzda tasdiqlanadi. Ammo moddiy jismdan foydalanmagan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali shaxsiy kompyuterga yoki mobil qurilmaga yuklash orqali tarqatiladigan, onlayn xizmatlardan foydalanish yoki ularga obuna bo'lish va boshqa usullar orqali tarqatiladigan raqamli mahsulotlarga doir shartnomalar cheklar, raqamli mahsulotga bo'lgan huquqni sotib olish to'g'risidagi kvitansiyalar hamda shartnoma taraflarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan, moddiy jismdan foydalanmagan holda tarqatish jarayonida axborot tizimlari orqali shakllantirilgan boshqa xabarlar asosida rasmiylashtiriladi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi — zamonaviy raqamli muhitda xizmat ko'rsatishning huquqiy mexanizmini ifodalovchi vositadir. Bu shartnoma an'anaviy xizmat ko'rsatish shartnomasidan faqat ko'rsatish usuli (raqamli shakl), tezligi, avtomatlashtirilganligi va texnologik asoslari bilan farqlanadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari an'anaviy turdagi shartnomalardan turli xil afzalliklari

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida" 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son qonuni <https://lex.uz/docs/-6213382>

bilan ham farq qiladi. Masalan, Raqamli texnologiyalar yordamida shartnomalar tuzish tez amalga oshiriladi va yuqori samaradorlikka egadir. Raqamli texnologiyalar yordamida shartnoma tuzishning eng muhim afzalliklaridan biri – bu hujjatlarni tayyorlash va imzolash jarayonining sezilarli darajada tezlashuvi hamda umumiy samaradorlikning oshishidir. Ayniqsa, zamonaviy Contract lifecycle management (CLM) tizimlari, shuningdek DocuSign, Adobe Sign, PandaDoc kabi platformalar yordamida shartnomalarni tayyorlash, muvofiqlashtirish va imzolash jarayonlari avtomatlashtirilgan va tizimli asosda amalga oshiriladi. Bunday tizimlar quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. Avtomatik tuzilma: Shartnoma matni oldindan belgilangan shablonlar asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi;
2. Auto-fill funksiyasi: Kompaniya rekvizitlari, kontragent ma'lumotlari, sana va raqamlar kabi takroriy ma'lumotlar bir marta kiritilib, barcha hujjatlarga avtomatik ravishda qo'shiladi;
3. Elektron raqamli imzo (ERI) orqali shartnomani imzolash esa jarayonni ancha tez, ishonchli va xavfsiz qiladi;
4. Real vaqt monitoring: Harakatlar kuzatilib boriladi, ya'ni shartnoma kim tomonidan, qachon ko'rilgani va imzolangani nazorat ostida bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar rivoji

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar rivoji uchun yaratilgan keng imkoniyatlar katta natijalar olib keldi. IT-park rezidentlari 2 ming 800 dan oshdi, xorijiy kompaniyalar 752 taga yetdi. Bu sohada 40 ming nafar yoshlar yuqori daromad topayapti. Oxirgi 5-yilda soha eksporti 170 million dollardan 1 milliard dollarga yaqinlashdi. Internet tezligi 7 barobar, mobil internet esa 4,5 barobar oshdi. O'tgan yili sohadagi startaplarga 70 million dollar venchur investitsiya kiritildi. Bularning natijasida "Global startaplar indeksi" reytingida O'zbekiston 12 pog'ona yuqorilab, "TOP-100"likka kirdi. O'tgan yili "Sun'iy intellektga tayyorlik" xalqaro indeksida yurtimiz 17 pog'ona ko'tarilib, Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Bunday ishlar izchil davom ettirilmogda. Xususan, kelgusi yilda davlat xizmatlarini raqamlashtirishni 70 foizga, IT xizmatlari miqdorini 100 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan. "Elektron hukumat rivojlanish indeksi"da kamida 55-o'ringa ko'tarilish maqsad qilingan⁴⁵. Shu asoslarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida elektron hujjatlar va elektron raqamli imzo (ERI) institutlari qonuniy asosda mustahkamlangan. 2022-yil 12-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida: "Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qog'oz hujjat bilan teng huquqqa ega hisoblanadi" deb keltirilgan. Shuningdek, O'RQ-611-II-sonli "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida "Elektron hujjatlar qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi" deb ta'kidlab o'tilgan⁴⁶. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham shartnoma ikki yoki undan ortiq tomonning o'zaro roziligi asosida tuziladi va bu norma elektron rozilikni ham o'z ichiga oladi⁴⁷ degan norma belgilangan. Xalqaro miqyosda BMT huzuridagi UNCITRAL tomonidan 1996-yilda ishlab chiqilgan "Elektron savdo to'g'risida"gi Model qonun (UNCITRAL Model Law on Electronic

⁴⁵ Raqamli texnologiyalar sohasidagi rejalar taqdimot qilindi <https://share.google/kqW5WpI0PZYQVsuty>

⁴⁶ O'RQ-611-II-sonli <https://lex.uz/docs/4802347>

⁴⁷ Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/111187>

Commerce) asosiy huquqiy manba hisoblanadi. Ushbu model ko'plab davlatlar, jumladan, O'zbekistonning normativ-huquqiy tizimiga asos bo'lgan. Uning 6-moddasida "Agar axborot elektron shaklda taqdim etilgan bo'lsa, u yuridik kuchga, ishonchlilik darajasiga ega bo'lishi va hujjat sifatida tan olinishi mumkin" deb keltirilgan⁴⁸. Demak, raqamli texnologiyalar yordamida shartnoma tuzish nafaqat texnologik qulaylik, balki qonuniy jihatdan to'laqonli asoslangan amaliyot hisoblanadi. Milliy va xalqaro normalar elektron hujjatlarning qog'oz shaklidagi hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega ekanini tan olgan.

Raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari afzalliklari

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga tuziladigan xizmat ko'rsatish shartnomalarning yana bir afzalligi xatoliklarni kamayishi va qonunchilikka muvofiqlikdir. Raqamli transformatsiya sharoitida huquqiy hujjatlar, xususan, shartnomalar bilan ishlash jarayonining avtomatlashtirilishi nafaqat samaradorlikni oshirish, balki xatoliklar sonini kamaytirish, yuridik muvofiqlikni ta'minlash va xavflarni boshqarish bilan ham tavsiflanadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida hujjatlarni yaratish va tahlil qilish sohasida sezilarli yutuqlar kuzatilmoqda. Hammamizga ma'lumki, shartnomalarni tuzish jarayonida quyidagi asosiy huquqiy xatoliklar yuzaga kelishi mumkin:

- a. Terminologik nomuvofiqliklar - huquqiy atamalarning noto'g'ri ishlatilishi;
- b. Normativ-huquqiy zidliklar - shartnoma bandlarining amaldagi qonunlarga mos kelmasligi;
- c. Tuzilishdagi mantiqiy nomuvofiqliklar - shartnoma moddalari orasidagi ichki qarama-qarshiliklar;
- d. Hujjatlar to'liqligining buzilishi - majburiy huquqiy bandlarning mavjud emasligi yoki noto'g'ri bayon qilinishi. Ushbu omillar huquqiy xavflarni kuchaytiradi va kelgusidagi nizolar, da'volar uchun asos bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda SI asosida ishlovchi yuridik tahlil tizimlari (legal analytics platforms) shartnoma matnlarini avtomatik tarzda tahlil qilish, tahrirlash va baholash imkonini bermokda. Xususan:

- I. natural language processing (NLP) texnologiyasi orqali shartnoma matnlaridagi mantiqiy ziddiyatlar, normativ zidliklar va uslubiy xatolar aniqlanadi;
- II. machine learning asosida tizim foydalanuvchining oldingi tahrirlaridan o'rganadi va takroriy xatolarni oldindan prognoz qiladi;
- III. automated compliance check funksiyasi orqali tizim shartnoma matnini milliy va xalqaro qonunchilikka muvofiqligi jihatidan baholaydi.

Masalan, "LawGeex" platformasining asosiy funksiyalari shartnoma bandlarini solishtirish (clause comparison), qonunchilikka muvofiqlikni tekshirish (compliance check) va yuridik xavflarni baholash (risk rating) dan iborat bo'lib, kichik va o'rta korxonalar uchun shartnomalarni avtomatik auditi va huquqiy tekshiruvi uchun qo'llaniladi⁴⁹. Ushbu tadqiqotda LawGeex platformasining inson yuristlarga nisbatan 94% aniqlik bilan shartnoma xatolarini aniqlagani qayd etilgan⁵⁰. "Kira Systems"ning asosiy funksiyasi korporativ hujjatlar va birlashish va qo'shilish bitimlari bo'yicha "due diligence" - yuridik xavf tahlili bo'lib, yirik yuridik

⁴⁸ UNCITRAL Model Law <https://uncitral.un.org/en/model-laws/electronic-commerce>

⁴⁹ LawGeex. (2018). AI vs. Lawyers: The Ultimate Contract Review Benchmark Study.

⁵⁰ <https://www.lawgeex.com/resources/benchmark>

firmalar va moliyaviy-konsalting kompaniyalarida yirik bitimlarni tahlil qilishda qo'llaniladi⁵¹. Shuningdek, "Legalsifter" yuridik platformasi esa shartnoma muzokaralari jarayonida sun'iy intellekt yordamida real vaqti yuridik tavsiyalar ishlab chiqish asoslangan bo'lib, korxonalar tomonidan shartnoma bandlarini tuzatish va muzokara strategiyalarini takomillashtirishda foydalaniladi⁵².

Xulosa

Raqamli texnologiyalar yordamida haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari asosida ko'rsatilgan xizmatlarda iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish dolzarbdir. Raqamli xizmatlar ko'rsatilganida iste'molchi sifatsiz xizmat, kechikish yoki shartnoma shartlariga zid harakatlarga duch kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli xizmatlar bozorida iste'molchi huquqlarini ta'minlash uchun avtomatik kompensatsiya mexanizmlari, tezkor onlayn da'vo arizalari tizimi va xizmat sifatini baholash tizimlarini qonun darajasida mustahkamlash zarur. Bu nafaqat foydalanuvchining manfaatini himoya qiladi, balki xizmat ko'rsatuvchilarni sifatli va shaffof ishlashga majbur etadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yordamida tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Masofaviy ish, onlayn xizmatlar va elektron platformalar orqali faoliyat yuritish holatlari ko'paygani sari, bu turdagi shartnomalarning ahamiyati ham ortib bormoqda. Ular nafaqat vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi, balki huquqiy jihatdan rasmiy munosabatlarni tartibga solishga ham xizmat qiladi. Raqamli shartnomalarning asosiy afzalliklari — ularning tezkorligi, qulayligi va masofadan turib tuzilishidir. Biroq bu jarayon bilan bog'liq bir qancha muammolar ham mavjud. Jumladan, elektron imzoning huquqiy kuchi bilan bog'liq tushunmovchiliklar, texnik infratuzilmaning ayrim hududlarda yetarli emasligi, axborot xavfsizligi tahdidlari va mutaxassislar yetishmovchiligi bu borada yechimini kutayotgan dolzarb masalalardir. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, texnologik infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash zarur. Ayniqsa, E-IMZO, elektron hujjat aylanishi tizimlari va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali bu sohada salmoqli natijalarga erishish mumkin. Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar asosida xizmat ko'rsatish shartnomalarini keng joriy etish — O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti va raqamli transformatsiyasining ajralmas qismidir. Bu jarayonda har bir ishtirokchi – foydalanuvchi, tadbirkor va davlat organlari – o'z o'rnini aniq belgilab olishi muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.1. 21.12.1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
- 1.2. 29.09.2022-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni.
- 1.3. <https://share.google/kqW5Wpl0PZYQVsuty>
- 1.4. <https://uncitral.un.org/en/model-laws/electronic-commerce>
- 1.5. <https://www.lawgeex.com/resources/benchmark>

⁵¹ <https://kirasystems.com/solutions/mergers-acquisitions/>

⁵² <https://www.legalsifter.com/>

- 1.6. <https://kirasystems.com/solutions/mergers-acquisitions/>
- 1.7. <https://www.legalsifter.com/>